ATOULLA XO'JAYEV – BXSRDAN XORIJGA O'QUVCHI VA TALABALAR YUBORISHNING TASHKILOTCHISI VA TASHABBUSKORI

Artikov Zafar Zaripovich
Buxoro Davlat universiteti tayanch doktoranti,
TURON ZARMED universiteti tarix fani o'qituvchisi
E-mail: zafarartikov.85@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7709122

Rezyume. Ushbu maqolada Buxoro Xalq sovet Respublikasi (BXSR, 1920-1924 yy) hukumat rahbarlaridan Atoulla Xo'jayevning xorijga o'quvchi va talabalar o'qitishdagi tashkilotchilik faoliyati tahlil etilgan

Tayanch atamalar: konsul, vakolatxona, diplomatiya, Moskva, Berlin, o'quvchi, talaba, o'qish, gimnaziya, litsey, oliy ta'lim, Germaniya, Chorjo'y, maorif, stipendiya, qorako'lchilik, savdo-sotiq, dari-darmon, tayyorlov kurslar, "Buxoro axbori"

Abstract: This article analyzes the organizational activities of Atoulla Khodzhaev for teaching students and students abroad from the heads of governments of the Bukhara People's Soviet Republic (BNSR, 1920-1924)

Key words: consul, representation, diplomacy, Moscow, Berlin, pupil, student, study, gymnasium, lyceum, higher education, Germany, Tsar, education, scholarship, karakul breeding, trade, medicine, preparatory courses, "Bukhara information"

Резюме. В этой статье анализируется организационная деятельность Атауллы Ходжаева по обучению студентов и студентов за рубежом от руководителей правительств Бухарской народной советской республики (БНСР, 1920-1924 гг.)

Ключевые слова: консул, представительство, дипломатия, Москва, Берлин, ученик, студент, учеба, гимназия, лицей, высшее образование, Германия, Царь, образование, стипендия, каракулеводство, торговля, медицина, подготовительные курсы, "Бухарская информация"

XX asrning dastlabki o'n yilliklarida Buxoro va butun Turkiston mintaqasida jadidchilik hamda taraqqiyparvarlik harakatining vakili, BXSR hukumati a'zosi, keyinchalik O'zbekistonda bir qator mas'ul vazifalarda ishlagan Atoulla Xo'jayev (1880-1937) haqida tarixiy haqiqatdan voqif bo'lyapmiz.

Otaulla Xo'jayevning ko'p qirrali va samarali faoliyati solnomasiga qisqa muddat bo'lsada, BXSR hukumatining Moskva (RSFSR) vakolatxonasini boshqargan davri muhim o'rin tutadi. Avvalo Atoulla Xo'jayev Buxoro hukumatining Rossiya davlatidagi vakolatxonasini boshqargan tarixiy-xronologik chegaraga aniqlik kiritishga zarurat mavjud ekanligi ko'zga tashlanadi. Buxorolik jurnalist va adib

N.Naimov: “Atoulla Xo’jayev 1922 yildan Moskvada ikki yil yashab, BXSRning Rossiyadagi vakolatxonasini bohqardi[1]” – deb qayd etsa, professor S.I.Inoyatov: “1922 yilning yanvar-may oylarida Atoulla Xo’jayev Rossiya davlatida BXSRning muxtor vakili bo’lib xizmat qiladi. 1923 yil may oyidan esa Xalq Nozirlar Kengashi raisi lavozimini vaqtinchalik bajara boshlaydi[2]” – deb yozgan. Manbashunos olim K.J.Raxmonov RSFSRdagi BXSR vakolatxonasini Atoulla Xo’ja 1922 yilning bahor va yozida boshqarganligini ko’rsatib o’tgan[3].

Tarixiy tadqiqotlar natijasida aniqlandiki, Atoulla Xo’jayev BXSRning Moskvadagi vakolatxonasini 1922 yil yanvar va 1922 yil avgust oylarida boshqargan. Uning faoliyati bilan bog’liq voqealar davomi 1922 yil kuzidan BXSR Buxoroda kechgan.

Atoulla Xo’jayev BXSRning Rossiyadagi konsuli lavozimida faoliyat yuritgan paytda RSFSR-BXSR o’rtasidagi iqtisodiy, madaniy, ilmiy texnikaviy sohalardagi aloqalarni kengaytirishda o’z hissasini qo’shganligini tarixiy voqeliklar tasdiqlaydi.

Atoulla Xo’jayev faoliyatining muhim qirralaridan RSFSR, Ozarbayjon, Turkiya va Germaniyada o’quvchi va talabalar o’qitish orqali zamonaviy malakali kadrlar tayyorlashdagi tashkilotchilikda namoyon bo’ladi.

Aynan 1922 yil iyun-iyul oylarida Germaniyaga buxorolik yoshlar asosiy partiyada yuborilgan edi.

Ma’lumki, xorijga talabalar yuborish uchun BXSRning Eski Buxoro, Chorjo’y, Qarshi kabi shaharlarida 4-5 oylik tayyorlov kurslari ochilgan. BXSRning matbuot organi “Buxoro axbori”da: “Chorjo’yda ochilishi qaror qiling’on Germaniya, Rusiyag’a yuboriladig’on talabalarni hozirlov kursi 1 apreldan ochilib davom eta boshladi. Muddati 5 oylik bo’lib, sentyabr oyida bitajak bu kurslarga kirishga borgan odamlar quyidagi shartlarga binoan qabul qilinadurlar; 1) yoshlari 9 dan kam, 15 dan ziyod bo’lmasligi, 2) o’zbekcha o’quv va yozuv bilsun. Buxoro ta’ba (fuqaro)si bo’lsun. Bu kurs Chorjo’yning eng go’zal binolaridan bo’lg’on sobiq gimnaziyadur. O’quvchi talabalarga 2 qabat libos berilib, butun ozuqalari maorif nazorati tomonidan ta’min etiladur[4]” – degan fikrlar bayon etilgan.

Xorijga va Rossiyaga talabalar yuborish imkoniyatlarini aniqlash Moskva orqali o’quvchi hamda talabalarning safarga chiqishlariga tayyorlash, ularning yo’l chiptalari hamda o’qish joylariga xavfsiz yetib borishlari, transport va xarajatlar bilan bog’liq masalalarni hal qilish Atoulla Xo’jayev zimmasiga yuklatilgan. Atoulla Xo’jayev RSFSR tashqi ishlar vaziri o’rinbosari Karaxan, Germaniyaning Moskvadagi

[1] Naimov N. Buxoro jadidlari (Tarixiy ocherklar, hujjatli qissa). – Toshkemt. Fan. 2000 yil. – B. 15.
[2] Inoyatov S. Buxoroi sharif xo’jalari: Usmon Xo’ja, Otaulla Xo’jayev, Fayzulla Xo’jayev ajdodlari va avlodlari shajarasi. Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2022. – B. 122-123.
[3] Raxmonov K. Buxoro Xalq sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. – Toshkent. “ABV MATBUOT-KONSALT”; 2012. –B.123.
[4] Yurtimizda xorijga talabalar yuboruv uchun kurs//Buxoro axbori, 79-son. 1922 yil 23 aprel

elchixonasi vakillari bilan bu borada muzokaralar olib borgan. Uning nomiga xorijga talaba o'qitish masalasida BXSR maorif nozirligidan maktub va murojaatlar kelib turgan. Bu haqda "Buxoro axbori"da: "Buxoro hukumati tarafindan Germaniyaga ixtisosiy ilmlarni tahsil etmak uchun talabalar yubormakka qaror qilinib, bu talabalar Chorjo'y shahrida hozirlanmoqda edi. Ularni yubormak xususida Germaniyani Maskov elchisi bilan fikr almashmak uchun maorif nazorati Buxoroning Maskov elchisiga murojaat qilg'on edi. Mana shuning natijasi o'laroq kelgan xatlarini va bizning safirimiz (elchimiz) bilan (Atoulla Xo'jayev nazarda turilmoqda) Germaniyaning Moskov elchisi orasinda bo'lg'on fikr almashinuvlarini xabar qilamiz[5]" – deb ma'lumot keltirilgan.

Atoulla Xo'jayev BXSR maorif nozirligining Moskva vakolatxonasiga yo'llagan maktublari, murojaat va buyruqlarini mutasaddi idoralarga yetkazish bilan birga, Germaniyaning Rossiyadagi elchisidan olgan javob xatlarini, RSFSR hukumati tomonidan taqdim etilgan bildirishnomalarni muttasil Buxoroga yuborib turgan. Shuningdek, o'quv joylari hozirlash ishlarining ahvolidan BXSR maorif nozirligi xabardor qilib turilgan.

1922 yil yozida Rossiyadagi Buxoro elchixonasidan BXSR xalq maorifi nozirligiga Atoulla Xo'jayev imzosi bilan yo'llangan xatdan : "Sizning Germaniyaga talabalar yuboruv to'g'risidagi xatingiz munosabati ila biz 20 mayda (1922 yil) Germaniya konsuliga murojaat qildik (xat ilova qilinadi) va unga 1427-raqam ila javob oldik. Va tarjimasi ila sizga yubordik. Bu to'g'rida sizning qaroringiz bizga zarur, chunki biz rasmiy olib bormog'imiz tegishdir. Bu masaladan tashqari sizga ma'lum qilamizki, biz Buxoro uchun Moskav va Peterburg o'quv yurtlarida o'rinlar olib qoluv to'g'risida choralar ko'rdik. Biz stipendiantlar uchun (ya'ni hukumat hisobiga ta'min qilinib o'qiydigan shaxslar) o'quv yili boshiga bir necha o'rinlar ajratdik. Bu masala to'g'risida ham tez suratda javob berishingiz zarurdir[6]" – kabi fikrlarni o'qish mumkin.

1922 yil avgust oyi boshida Atoulla Xo'jayevning sa'y harakati tufayli Moskva (RSFSR)ning Sharq dorilfununidan ham buxoroliklar uchun 20 ta o'rin ajratilgani haqida BXSR Nozirlar Kengashi maxsus telegramma qilgan.

Ta'kidlash joizki, BXSRning xorijga o'qish uchun yuborilgan o'quvhi va talabalar bir necha partiyada navbat bilan yuborilgan. Ularni kutib olish va bu haqda Germaniya elchixonasini xabardor qilib, talabalar viza (chaqiruv qog'ozi) va rasmiy hujjatlarini tayyorlash ishlari bir necha bosqichda amalga oshirilgan. Shunday tadbirlardan oldin Atoulla Xo'jayev Germaniyaning Moskvadagi vakolatxonasiga: "BXSRning talabalari ixtisos ilmi tahsil etmak uchun Germaniyaga yubormakni orzu qiladur. Hozirgi vaqtda mening tarafimdan Buxoro xalq maorifi nazoratindan xat

[5] Germaniyaga talabalar yubormak ishining borishi//Buxoro axbori, 93-son. 1922 yil 27 iyul

[6] O'MA. P-56 –fond, 1-ro'yxat; X41yig'ma jild, 29-varaq, Rusiyadagi Buxoro saforatxonasi (elchixona)dan BXShJ Xalq maorifiga // Buxoro axbori; 93-son, 1922 yil 27 iyul

olundi. Mazkur xatda ko'rsatiladurkim, Germaniyaga yuborilaturg'on talabalarning miqdori 30 nafar belg'ilong'on va yoshlari 20 ila 15 orasidadur[7]" – deb xabar bergandi.

Tadqiqot davomida amin bo'ldimki, Atoulla Xo'jayev Moskvada BXSRning vakolatli vakili vazifasida ishlar ekan, Germaniyaga talabalar yuborish imkoniyatlari bilan birga, yuborilajak o'quvchilarni ushbu mamlakat qaysi shaharlarida va qaysi o'quv yurtlarida o'qishi mumkinligi, xorijda ta'lim olajak buxorolik yoshlar ta'minoti, qaysi yo'llar orqali Germaniya-BXSR moddiy-madaniy aloqalarini kengaytirish va mustahkamlash masalalari haqida ham jiddiy ravishda shug'ullangan. Atoulla Xo'jayevning "Ato Xo'ja" nomi bilan 1922 yil avgust oyi o'rtalarida "Maskov-Buxoro konsulidan Germaniya konsuliga" nomli murojaati mavjud bo'lib, bu murojaat: "Muhtaram konsul afandi!" – deb boshlanadi. "Ushbuning ila sizdan tuzuk o'tinamizkim, tubandagi savollarga rad etmasdan javob berishingizni:

1. Hozirgi zamonda Germaniyaga talabalar yuboruvga imkon bormu?
2. Imkon bo'lsa qanday yo'llar bilan yubormak ma'qul?
3. Siz Germaniyaning qay shaharlariga yuboruvni ma'qul ko'rasiz va qanday ixtisoslik maktablariga?
4. Talabalarni yuborgan vaqtda moddiy ta'minot ishi oqcha ilami yoxud mol (misol qorako'l teri) ila ta'min qiluv mumkinmi?
5. Qanday mollar yubormak matlub? Oldindan sizga chin ko'ngildan tashakkurimni taqdim etaman deya Ato Xo'ja[8]" – degan masalalar ko'tarilgan murojaatda.

Germaniyaning Moskvadagi elchisidan olingan javob xatiga tayanadigan holda Atoulla Xo'jayev BXSR hukumatini safar yo'nalishlari, xorij o'rta maxsus va oliy o'quv yurt (dorilfunun)lar, ulardagi ixtisosliklar haqida xabardor qiladi. Shuningdek, moddiy ta'minotini oltin barobaridagi pul va qorako'l teri orqali amalga oshirish mumkinligi haqidagi ma'lumot ham BXSR maorif nozirligiga taqdim etilgan. Yuqoridagi imkoniyatdan kelib chiqib BXSR hukumati 1922-1923 yillar Germaniyaga yuborilgan buxoroliklar ta'minoti uchun Berlin bankasiga 125 ming dollar miqdorida pul va ko'plab miqdorda qorako'l terisi joylashtirgan. Shuningdek Berlin markazidagi "Barbaros" ko'chada Buxoro tijorat vakolatxonasi uchun 5 qavatli sotib olinib, kelgusida talabalarga sarf-xarajatlari uchun 9-10 yilga yetadigan german bankasida pullar qo'yilgan.[9]

Ma'lumki Buxoro qorako'li xorijiy davlatlarda, jumladan, Germaniyada ham yuqori qadrlanib, nemis shaharlaridagi yarmakalarda ayrim tobarlarga nisbatan valyuta o'rnida qadrlangan. Amirlik davrida bir yilda 1,800 mingdan 2 mln donagacha

[7] Buxoro axbori. 92-son. 1922 yil 25 iyul. Hayitov Sh.; Raxmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya hamkorligining tarixiy lavhalari. Toshkent: Fan. 2004, -B.32.
[8] Maskov-Buxoro konsulidan Germaniya konsuliga//Buxoro axbori; 95-son. 1922 yil 16 avgust.
[9] Hayitov Sh. Raxmonov K. Buxoroning xorijdagi talabalari (XX asrning 20-yillari). Buxoro. 2003. –B.15, Qayumxon V. Qiyratilgan qismatlar// O'zbekiston adabiyoti va san'ati; 1992 yil 24 aprel

yetishtirilgan Buxoro qorako'li yetishtirish BXSRning birinchi yilida kelib 200000 donaga tushib qolgan bo'lsada, ushbu sohani tiklashga e'tibor kuchaytirilgan edi. BXSRda 1923 va 1924 yillarda Qorako'l teri yetishtirish 800000 daga yetkazildi ya'ni, 4 baraborga oshdi.[10] Atoulla Xo'jayev yirik buxorolik qo'rako'lchi savdogarning o'g'li bo'lgani uchun talabalar xarajatlarining bir qismini Buxoro qorako'li va qorako'lchasi hisobidan qoplanishiga nemislar rozilik berishini oldindan idrok etgan edi.

Atoulla Xo'jayev BXSRning Rossiyadagi vakolatxonasini qisqa muddat boshqargan bo'lsada Rossiya-BXSR hamkorlik aloqalarini barcha yo'nalishlarda yo'lga qo'yish, mavjud imkoniyatlardan foydalanib Germaniya-BXSR aloqalarini mustahkamlashda o'zining diplomatic mahoratini ishga soldi. Ayna Atoulla Xo'jayev Moskva vakolatxonasida faoliyat yuritgan bosqichda Germaniyaning "Sinkup", "Shreder va uning birodarlari" kabi firmalari bilan BXSR o'rtasida shirinmiyani qayta ishlash, ichak-chavoq zavodlari faoliyatini yo'lga qo'yish, dori-darmonlar yetkazib berish borasidagi savdo-sotiq, iqtisodiy aloqalar rivojlandi.[11]

O'quvchi va talabalar asosiy qismini Germaniyaga o'qish uchun yuborilishi hali u konsullik qilgan davrga to'g'ri keladi. Ta'kidlash joizki, Atoulla Xo'jayev BXSRda hukumat raisining o'rinbosari lavozimida ishlagan davrda "buxorolik talabalar" taqdiri bilan doimo qiziqib turdi. Germaniyada inflatsiya dahshatli tus olgan 1922-1923 yillarda talabalarning ta'minoti bilan bog'liq hukumat doirasidagi yig'ilishlarda qatnashgan Atoulla Xo'jayev ular stipendiyasini 35 oltin so'mdan 45 oltin ko'paytirish tashabbuskorlaridan biri bo'lgan.[12]

Xulosa. Xullas, 1922 yilning birinchi yarmi Atoulla Xo'jayev faoliyatida diplomatiya sohasida amalga oshirilgan samarali ahamiyat kasb etishi bilan xarakterlanadi. Tarixan qisqa muddatda Atoulla Xo'jayev diplomatiya sohasida boy tajriba orttirdi, hamda ushbu tajribasidan, garchi mustamlakachi kuchlar unga qarshi borishlari mumkinligi bilib tursada, o'z vatani kelajagi, xalq taqdirini ijobiy tomonga o'zgartirish maqsadida foydalandi va shu say-harakati sabab oxiri qatag'on qurboniga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Naimov N. Buxoro jadidlari (Tarixiy ocherklar, hujjatli qissa). – Toshkemt. Fan. 2000 yil.

2. Inoyatov S. Buxoroi sharif xo'jalari: Usmon Xo'ja, Otaulla Xo'jayev, Fayzulla Xo'jayev ajdodlari va avlodlari shajarasi. Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2022.

[10] Qarang. Buxoro qorako'lchilk ishi//Ozod Buxoro; 7(220) son, 1923 yil 1 noyabr. Hayitov Sh. Raxmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya… -B. 17-18.
[11] Hayitov Sh. Raxmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya. –B. 10-21.
[12] O'sha joyda. –B.38.

3. Raxmonov K. Buxoro Xalq sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. – Toshkent. “ABV MATBUOT-KONSALT”; 2012.

4. Buxoro axbori, 79-son. 1922 yil 23 aprel. Yurtimizda xorijga talabalar yuboruv uchun kurs.

5. Buxoro axbori, 93-son. 1922 yil 27 iyul. Germaniyaga talabalar yubormak ishining borishi.

6. O’MA. P-56 –fond, 1-ro’yxat; X41yig’ma jild, 29-varaq,

7. Buxoro axbori; 93-son, 1922 yil 27 iyul. Rusiyadagi Buxoro saforatxonasi (elchixona)dan BXShJ Xalq maorifiga.

8. Buxoro axbori. 92-son. 1922 yil 25 iyul. Hayitov Sh.; Raxmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya hamkorligining tarixiy lavhalari. Toshkent: Fan. 2004.

9. Maskov-Buxoro konsulidan Germaniya konsuliga//Buxoro axbori; 95-son. 1922 yil 16 avgust.

10. Hayitov Sh. Raxmonov K. Buxoroning xorijdagi talabalari (XX asrning 20-yillari). Buxoro. 2003.

11. Qayumxon V. Qiyratilgan qismatlar. O’zbekiston adabiyoti va san’ati; 1992 yil 24 aprel

12. Hayitov Sh. Raxmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya. Buxoro qorako’lchilk ishi. Ozod Buxoro; 7(220) son, 1923 yil 1 noyabr.